

IJTIMOIIY IQTISODIY SOHALARDA KADRLAR SIYOSATI VA YOSHLARNI BANDLIKNI TA'MINLASH

Ergasheva Marxabo¹

Andijon viloyati Oltinko'l tumani Maktab va maktabgacha ta'lim muassasasi

KEYWORDS

Oliy ta'lim, ta'lim, texnologiya, yangi texnologiyalar, modernizatsiya, pedagogik texnologiya, kadrlar kretiv qobiliyat, Ilm – fan va innovatsiyalar, ishsizlik, ish bilan bandlik, Startar loyihlar.

ABSTRACT

Kadrlar masalasi bo'yicha davlat siyosati – bu mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan malakali, bilimli, zamonaviy fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlash ularni joy-joyiga to'g'ri joylashtirish va ularning mehnat faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan davlat darajasidagi strategik yo'nalishdirni rivojlashtirishga qaratilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15556872**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kadrlar – davlat taraqqiyotining hal qiluvchi omili hisoblanadi. Xar qanday davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy rivojlanish avvalo inson kapitali, ya'ni malakali kadrlar salohiyatiga bog'liq. Shu boisdan ham kadrlar masalasi davlat siyosatining eng ustivor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning yosh kadrlar siyosati bo'yicha, O'zbekistonda yosh avlodni qo'llab – quvvatlash, ularni yetakchilikka tayyorlash va davlat boshqaruvida jalb etish borasida chuqur islohotlar olib borayotganligini ko'rsatadi. Quyida ushbu siyosatga Prezidentning fikrlari keltirilgan:

1. Yoshlarni rahbarlik va lavozimlarga tayyorlash;
2. Yoshlar siyosatining ustivor yo'nalishlarini belgilash;
3. Yoshlarning bandligini ta'minlash va ularni qo'llab – quvvatlash;
4. Yoshlarni siyosiy jarayonlarga jalb qilish;
5. Yoshlarni tarbiyalash va ularning salohiyatini rivojlantirish.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning yosh kadrlar siyosati, yoshlarni har tomonlama qo'llab – quvvatlash, ularni rahbarlik va lavozimlarga tayyorlash va siyosiy jarayonlarga jalb

¹ Andijon viloyati Oltinko'l tumani Maktab va maktabgacha ta'lim muassasasiga qarashli 44-umumta'lim maktabining amaliyotchi psixologi

qilish orqali, O'zbekistonning kelajagini yoshlar bilan birga quramiz g'oyasiga asoslanadi. Bu siyosati yosh avlodning salohiyatini ro'yobga chiqarish va ularni mamlakat taraqqiyotida faol jalb etishga qaratilgan.

Davlat siyosatida kadrlar quyidagicha ahamiyat kasb etadi:

1. Boshqaruv tizimi uchun tayanch: - davlat idoralarini yorituvchi mas'ul shaxslar – bu aynan kadrlar. Ular to'g'ri tanlanmasa, boshqaruv zaiflashadi.

2. Iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi: - sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohalarida samaradorlik - malakali ishchi kuchiga bog'liq.

3. Ilm – fan va innovatsiyalarni rivojlantiruvchi omil:

Yangi texnologiyalar, innovatsion g'oyalarni amalga oshiruvchi ham kadrdar hisoblanadi.

4. Davlat xaifsizligi va barqarorlik kafolatlari:

Xarbiy, huquq – tartibot, diplomatik va boshqa strategik sohalar mutaxassislarsiz davlat mustahkam bo'la olmaydi. Shu sababli har bir taraqqiy etgan davlat o'zining kadrlar siyosatini ruhta yo'lga qo'ygan bo'ladi. O'zbekistonda ham bu borada muhim islohatlar olib borilmoqda – yangi kasb - hunar markazlari ochilmoqda, oliy ta'lim muassasalar soni ortmoqda, xalqaro hamkorlik asosida yetakchi mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Kadrlar masalasi bo'yicha davlat siyosati – bu mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan malakali, bilimdi, zamonaviy fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlash ularni joy-joyiga to'g'ri joylashtirish va ularning mehnat faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan davlat darajasidagi strategik yo'nalishdir.

Quyidagilar ushbu siyosatning asosiy yo'nalishidir:

1. Ta'lim tizimini isloh qilish – zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlash uchun o'quv dasturlarini takomillashtirish; professional va texnik ta'lim muassasalarining salohiyatini oshirish; oliy ta'limda xalqaro standartlarga mos ta'lim berishni rivojlantirish.

2. Kadrlar salohiyatini oshirish – mutaxassislarning uzluksiz malaka oshirish va qayta tayyorlashni tashkil qilish; ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish orqali amaliy bilimlarni rivojlantirish.

3. Kadrlarni joylashtirish va bandlik siyosati – mehnat bozorini tahlil qilish asosida mutaxassislar taqsimotini tartibga solish; yangi ish o'rinlarini yaratish va yoshlarni ish bilan ta'minlashni rag'batlantirish.

4. Motivatsiya va ijtimoiy himoya – kadrlar mehnatini munosib rag'batlantirish; davlat xizmatchilari, o'qituvchilar, shifokorlar kabi soha vakillarining ijtimoiy ta'minotini yaxshilash;

5. Davlat xizmatini modernizatsiya qilish – tanlov asosida davlat xizmatchilarini saralash tizimini joriy qilish; shaffof, samarali va korrupsiyadan xoli kadrlar siyosatini yoritish.

Ijtimoiy – Iqtisodiy sohalar jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi va aholi Farovonligiga bevosita tasir ko'rsatadigan sohalar majmuasidir. Ular iqtisodiy

resurslarni boshqarish, ijtimoiy barqarorlikni taminlash va aholining turmush darajasining oshirishga xizmat qiladi.

Asosiy ijtimoiy – iqtisodiy sohalar :

1. **Ta'lim sohasi** - maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy va kasbiy ta'lim tizimlarini qamrab oladi; axolining bilim va malaka darajasini oshirish orqali iqtisodiy

rivojlanishga xissa qo'shadi; kadrlar tayyorlash va malaka oshirish markazlari muhim ro'l o'ynaydi.

2. **Sog'liqni saqlash sohasi** –tibbiy xizmat ko'rsatish, kasaliklarni oldini olish va axolining salomatligini mustaxkamlashga qaratilgan; davlat va xususiy kilinikalar farmatsevtika sanoati ham shu sohaning bir qismidir; sog'lom millat shakilanishi mehnat unumdorligiga bevosita ta'sir qiladi.

3. **Ijtimoiy himoya va bandlik sohasi** - axolining ijtimoiy zaif qatlamlarini qo'llab quvvatlash (pensiya, nafaqa, moddiy yordam).

4. **Ishsizlikni kamaytirish va mehnat bozorini rivojlantirish qaratilgan dasturlarni o'z ichiga oladi** - kasb-hunar o'rgatish va qayta tayyorlash markazlari muhim ahamyat kasib etadi; aholining turar joy bilan ta'minlanish, infratuzulma rivoji va shaharsozlik siyosati; suv, gaz, elektr energiyasi va kommunal xizmatlarini boshqarish; ekologik barqarorlik va yashash sharoitilarini yaxshilashga qaratilgan loyihalar.

Yoshlarni bandligini ta'minlash sohasida muammolar va ularning yechimlari mavjud. Bulardan:

- **Ish o'rinlarning yetishmasligi** - yani ko'plab yoshlar o'rta va oliy ta'limni tamomlab, o'z mutaxassisligi bo'yicha ish topishga qiynalishadi, hududlarda aynan qishloq joylarida ish o'rinlari soni kam.

- **Kasbga mos ko'nikmalar yetishsamligi** - ta'lim muassasida berilayotgan bilimlar amaliyotda uzoqlashgan. Mehnat bozori talablari bmlan yoshlarning masalaka mos kelmaydi.

- **Axborot yetishmovchiligi** – yoshlar o'z hududidagi mavjud bo'sh ish o'rinlari, loyihalar yoki grant dasturlari haqida yetarli ma'lumotda ega emasligi.

- **Ijtimoiy to'siq va mentalitet** – ayrim oilalarda yoshlarning ayniqsa, qizlarning ishlashida ruhsat berilmasligi, jamiyatda ayrim kasblar past baholanadi.

Xozirgi kunda yoshlarni bandligini ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar – mamlakatning ijtimoiy-iktisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bu yo'nalishdagi islohatlar va tashabbuslar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- YAngi ish o'rinlarini yaratish
- Investitsiyalarni jalb qilish orqali sanoat zonalari va kichik ishlab chiqarishni tashkil qilish;
- Qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish.
- Kasb-hunar o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha:

- Professional va texnik ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirilmoqda;
- Yoshlar uchun bepul kasb-hunar o'rganish kurslari tashkil etilmoqda;
- "Ustoz – shogird" an'alarini rivojlantirish orqali amaliy ko'nikmalar berilmoqda.
- Yoshlar tadbirkorligini qo'llab – quvvatlash bo'yicha:
- "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi oryoli grantlar, imtiyozli kreditlar ajratilmoqda;
- Startar loyihalar uchun inkubator markazlar tashkil etilgan;
- Tadbirkorlik bo'yicha treninglar va mentorlik dasturlar yo'lga qo'yilgan.
- Bo'sh ish o'rinlar va mehnat bozorini rivojlantirish sohasida:
- Mehnat yarmarkalari tashkil qilinmoqda;
- Elektron bandlik platformalari orqali ish izlovchilar bilan ish beruvchilar bog'lanmoqda;
- Mahallalarda "Yoshlar daftari" asosida band bo'lmagan yoshlar ro'yhatga olinib, ularga ish topishga amaliy yordam ko'rsatilmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda kadrlar masalasi bo'yicha yoshlarni bandligini ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar – mamlakatning ijtimoiy-iktisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutmoqda. Biz yoshlar jamiyatda yaratilgan mavjud imkoniyatlarda va tashabbuslardan samarali foydalanmog'imiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatalari to'g'risida: O'z.Res.qonuni, 1997 y 24 aprel.
2. G'ulomov S.S. va boshqalar. Kichik biznes asoslari - Toshkent: TDAU, 2002y.
3. Rayzberg B.A. Biznes asoslari. Moskva. "Os-98", 2002.
4. O'zbekistonda kichik va xususiy biznesni rivojlantirish. T., 2003.
5. «Kichik va xususiy tadbirkorlik asoslari». G'ulomov S.S., Axmedov D.K., Boboyev X.I. Toshkent, 1996.
6. «Biznesni qo'llab quvvatlashni tashkil etish» V.Sh.Qaraganova tahririyati ostida, «akademiya menedjmenta i rinka» 2001.